
Shakarqishloq" mahallasi fuqarolarining azaliy orzulari ushalmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan «Shakarqishloq» mahalla fuqarolar yig'inida 900 metr ichimlik suvi va 4400 metr kanalizatsiya tarmog'i tortilmoqda.

Olib borilayotgan amaliy ishlardan mahalla ahli hursand. Ko'rsatilayotgan e'tibordan mamnun bo'lgan fuqarolar o'z minnatdorchiliklarini bildirmoqdalar.

Hozirda ko'chalarda qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda. Mazkur ishlarni amalga oshirish uchun respublika byudjetidan 3 mlrd. 100 mln. so'm mablag' ajratilgan.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-15 18:34:12